

MOLIYAVIY BILIM - INVESTITSIYALARNI SAMARALI BOSHQARISH ASOSIY OMILIDIR

Aziza Egamnazarova Ernazar qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

E-mail: egamnazarovaaziza17@gmail.com

Tel: +998915002902

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-1230-3005>

Gaffarova Sarvinoz Muzaffar qizi

*Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti
magistratura talabasi*

Turaeva Gulizaxro

*Guliston davlat universitetining katta
o'qituvchisi, PhD*

***Annotatsiya.** Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko'p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishi, iqtisodiy tafakkur va ko'nikmalarning rivojlanishiga bog'liq. Chunki, fuqarolar qanchalik yuqori iqtisodiy faollik va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shu darajada samarali bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy o'sish, Iqtisodiyoy barqarorlik, investitsiya, ishbilarmonlik muhiti.*

KIRISH

Eng avvalo, ta'kidlash joizki, moliyaviy savodxonlik tushunchasi juda keng hisoblanadi. U investitsiya kiritish va to'g'ri yo'naltirishdagi asosiy bilimdir shu bilan birgalikda aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqea va jarayonlar (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, ish haqi yoki nafaqa olish va h.k.)dan tortib nisbatan murakkab jarayonlar (masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, investitsiyalar kiritish, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqalar)da ishtirok etishigacha bo'lgan jihatlarni qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan kiritilgan "Moliya va

investitsiya savodxonligi” dasturini amalga oshirish taklifi ma’qullandi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qaroriga muvofiq “O’zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” loyihasi, O’zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo’yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo’yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo’yicha dastur, 2018-yildan boshlab O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi va «Norma» professional rivojlanish markazi tomonidan «Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish» dasturi yo’lga qo’yilgan.

Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning iqtisodiy mohiyatiga ko’ra, investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish bugungi kunda juda zarur bo’lib, u tijorat amaliyotida qilinadigan xarajatlardir.

Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quyidagi uch shakli o’zaro farqlanadi:

- 1) fizik aktivlarga qilingan investitsiyalar;
- 2) pul aktivlariga qilingan investitsiyalar;
- 3) nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar.

Fizik aktivlar deganda asosiy ishlab chiqarish vositalari, ya’ni ishlab chiqarish binolari va inshootlari hamda xizmat muddati bir yildan ortiq bo’lgan har qanday mashina va uskunalar tushuniladi. Pul aktivlari deganda boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag’larini olish huquqi, masalan, bankdagi depozitlar, aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqalar anglashiladi. Nomoddiy aktivlar xodimlarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, litsenziyalar sotib olish, savdo belgilarini ishlab chiqarish natijasida firma ega bo’ladigan boyliklardir.

Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalarda tavakkal xavfi yangi ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalarga qaraganda pastroq. Investitsiyalar, shuningdek, manbalariga ko’ra, ichki va tashqi investitsiyalarga bo’linadi. Ichki investitsiyalar manbalari davlat byudjeti, korxonalar va aholi mablag’lari, bank kreditlari hamda nobyudjet jamg’armalari mablag’lari, tashqi investitsiyalar manbalari bo’lib xorijiy davlatlar va firmalarning, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlarining mablag’lari hisoblanadi. Aholi shaxsiy jamg’armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan bog’liq bo’lgan quyidagi yo’nalishlarini ilgari surish mumkin:

- 1) aholida shaxsiy jamg’arma hosil qilish va uni ko’paytirish ko’nikmasini rivojlantirish, mazkur jarayonga undovchi avtomatik dastaklarni shakllantirish;

2) shaxsiy jamg'armani to'g'ri va samarali sarflash ko'nikmasini shakllantirish;

XULOSA

Aholi shaxsiy jamg'armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan bog'liq bo'lgan aholida shaxsiy jamg'arma hosil qilish va uni ko'paytirish ko'nikmasini rivojlantirish, mazkur jarayonga undovchi avtomatik dastaklarni shakllantirish; shaxsiy jamg'armani to'g'ri va samarali sarflash ko'nikmasini shakllantirish; jamg'armaning investitsiyaga aylanish jarayonlarini soddalashtirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi yo'nalishlarini, belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulizahro, T. (2023). The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (2), 14-20.
2. Turayeva G. The significance of sustainability of grain production in the consumer basket //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 420. – С. 01019.
3. Daminova K. M. et al. Evaluation of prodromal stage biomarkers in parkinson's disease and their role in disease progression use of modern digital technologies //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 408-411.
4. Qaxxorovna T. G. et al. The Impact of Artificial Intelligence on the Economy //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 1041-1045.
5. Тураева, Г. К. (2024). Актуальность обеспечения стабильности производства зерна в национальной экономике. Экономика и социум, (2-1 (117)), 1387-1394.
6. Turayeva G. et al. Opportunities to use financial services–“1 C Program” //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 556-561.
7. Ходжиева, Г. (2024). Анализ и сравнения языковых особенностей гендерной коммуникации на примере итальянской и узбекской литературы. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 232-235.
8. Norovna, X. G., & Sarvinoz, S. (2025). Italian tilida artikllarning qo'lanish usullari. Yangi o'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 2(5), 329-331.
9. Khodjiev, G. (2024). Analysis and comparison of linguistic features of gender communication on the example of Italian and Uzbek literature.
10. Ходжиева, Г. Н. (2023). Организация учебного процесса в системе довузовской подготовки по иностранному языку в дистанционной форме. Экономика и социум, (4-1 (107)), 990-993.